

YANGI O'ZBEKISTONDA ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISHGA DOIR OLIB BORILAYOTGAN TUB ISLOHOTLAR

Tirkasheva Dinora O'ktam qizi

Qardu tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona va bola salomatligini mustahkamlash masalalari, xalqaro tashkilotlarning bu boradagi vazifalari hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy skrining anjomlarini sog'liqni saqlash tizimiga joriy etish, Yurtboshimizning tibbiyot xodimlari bilan uchrashuvlarida belgilangan ustuvor vazifalar hamda ayollarning xavfsiz onalik huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati, Vishnevskiy nomidagi Demografiya instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Yozgi maktab" tashabbusi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida GRETL dasturi yordamida vaqtli qatorlar tahlili amalga oshirilib, demografik va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarini baholashda ARIMA modelidan foydalanilgan. Maqolada "Aholi salomatligi – 2030" dasturi, "Oilaviy salomatlik maktabi" loyihasi hamda Nukus shahridagi "Jeketerek" mahallasida olib borilayotgan jamoatchilikka asoslangan sog'liqni saqlash amaliyotlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ona va bola salomatligini yaxshilashda ilmiy asoslangan yondashuvlar va xalqaro hamkorlikning muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: UNICEF; Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti; BMT; UNFPA; PF–60 sonli Farmon; Aholishunoslik jamg'armasi; inson papillomavirusi; salomatlik volontyorlari.

Respublikamizda ona va bola salomatligi hamisha diqqat markazida bo'lib kelgan ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Negaki, bugungi kunning asosiy qatlam vakillari hisoblanmish onalar va bolalar o'rtasida turli xil noxush vaziyatlar va ko'ngilsizliklarni uchratish mumkin. Ana shunday vaziyatlarning oldini olish maqsadida Yurtboshimizning tashabbuslari yordamlarida bir qancha loyihalar hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilib kelinmoqda. Bu kabi tashkilotlardan biz UNICEF¹, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti², BMT³, UNFPA⁴ keltirib o'tishimiz mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan xalqaro tashkilotlarning vazifalari onalar va bolalar salomatligini nazorat qilish, ona va bola

¹ BMT tomonidan tashkil etilgan Xalqaro bolalar jamg'armasi

² Xalqaro tibbiy tashkilot

³ Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, millatlar o'rtasidagi do'stlikni rivojlantirish va iqtisodiy-ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash maqsadida tuzilgan global tashkilot

⁴ reproduktiv salomatlik va gender tengligi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro agentlik.

huquqlarining kafolatlarini ta'minlash, ularning hayot tarzida sog'lom muhit yaratish, ularga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish hamda ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish.

Muhtaram Yurtboshimizning „2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli farmoniga asosan reproduktiv yoshdagi va ona bo'lish ostonasida turgan xotin- qizlar hamda bolalar uchun yuqori darajadagi tibbiy xizmat ko'rsatish holatini yaxshilash, tug'ruq majmualariga esa eng so'nggi rusumdagi tibbiy texnika jihozlarini keltirish, bundan tashqari perinatal markazlarni yuqori malakali xodimlar bilan ta'minlash vazifalari belgilanildi. So'nggi yillarda qilinayotgan ishlarning ko'lami onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilganligidan dalolatdir. Bu ishlarning natijasi o'laroq ayollar va bolalar o'limi holatlarining kamayishiga erishmoqdamiz. Biz faqatgina shahar hududi va shunga yaqin masofalar bilan cheklanmasdan asosiy e'tiborimizni olis hududlarda tibbiy yordamni to'g'ri va izchil ravishda tashkil etish, bemorlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning samaradorligi va sifatini yaxshilash, tez tibbiy yordamni takomillashtirish hamda tibbiyot maskanlarida zamonaviy skrining anjomlarini keltirish va laboratoriya xonalarining so'nggi proyekt asosida jihozlangani va ishlayotganligini tekshirish talab etilmoqda.

Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni tug'ilishi uchun barcha qulayliklarni yaratishga mo'ljallagan qarorlarni aniqlash, shuningdek, 2022- yil 18-mart kuni Yurtboshimizning tibbiyot xodimlari bilan uchrashuvi tashkil etildi hamda bu ochiq seminar davomida „Tibbiyotdagi o'zgarishlarning barchasi - inson qadri uchun" jumlasini barcha rejalashtirilgan ishlar uchun bosh g'oya qilib belgilandi.

Keng ko'lamli ishlardan biri 2021-yil Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi va UNDP tashkil etildi.

UNFPAning vazifalari har bir homiladorlik istalgan bo'lishini, har bir tug'ruq xavfsiz o'tishini va har bir yosh insonning salohiyati to'liq ro'yobga chiqishini ta'minlashdan iboratdir. Bundan tashqari, ayollarning xavfsiz onalik huquqini ta'minlash, tug'ruq vaqtidagi o'lim holatlarini kamaytirish va oilani rejalashtirish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish zaruriyati. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish, ularning huquqlarini himoya qilish va jamiyatdagi rolini oshirish eng ustuvor vazifalar etib belgilandi. Qolaversa, yoshlarning sog'lom turmush tarzi, OIV, OITS profilaktikasi va ta'lim olish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Yurtimizda UNFPA **1993-yildan** buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Hozirgi vaqtda (2026-yil holatiga ko'ra) tashkilot O'zbekiston hukumati bilan 2026–2030-yillarga mo'ljallangan yangi mamlakat dasturini amalga oshirish ustida ishlamoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Aholishunoslik instituti hamda Vishnevskiy nomidagi Demografiya instituti bilan hamkorlikda “Yozgi maktab” ochildi. Ushbu muassasaning maqsadi yosh mutaxassislarimizning aholishunoslikka doir tahlil olib borish salohiyatini kuchaytirishdan iborat. Maktab tinglovchilarga tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha mavjud bilim va malakani oshirish imkonini beradi. Jumladan, O‘zbekistondagi demografik rivojlanishga oid muammolar, aholishunoslik bilan bog‘liq tahlil yuritish va taxminlarni ilgari surishga yo‘naltirilgan vazifa, usullar, sohaga joriy etilayotgan yangi texnologiyalar, yangicha yondashuvlar o‘rganiladi. Shu bilan birga “GRETLL” dasturi yordamida vaqtli qatorlarni tahlil qilish, faraz ssenariylarini ishlab chiqishda “ARIMA” modelidan foydalanish, ushbu modeldan foydalangan holda O‘zbekiston uchun tug‘ilish, o‘lim va migratsiya prognozi ssenariylarini yaratish borasidagi bilimlarni takomillashtirishga ko‘maklashiladi. BMT Aholishunoslik jamg‘armasining mamlakatimizdagi vakili o‘rinbosari Kamolxon Inomxo‘jayev aytishicha, yozgi maktab yosh olimlar, mutaxassislar uchun qiziqarli va juda foydali. Jamg‘arma joriy yil o‘z sa’y-harakatini aholi soni o‘zgarishini taxmin qilish tizimi bo‘yicha milliy salohiyatni rivojlantirishga ko‘maklashishga qaratadi.

Bu jamiyatlar ko‘magida Qoraqalpog‘iston Respublikasida saraton oldi kasalliklarining erta alomatlarini aniqlash va bu holatlarga tez davo choralarini qo‘llash ishlari amalga oshirildi. Jamg‘armalar ko‘maklari ostida Qoraqalpog‘iston Respublikasining 11 tumanida ko‘krak bezi saratoni bo‘yicha pilot loyihasi tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi ayollar o‘rtasida bachadon bo‘yni saratoni, ko‘krak bezi saratoni bilan kasallangan mamlakatlar orasida 2-o‘rinni qayd etgan.

Loyiha davomida 50000 dan ortiq ayollar bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan, ularda aniqlangan kasalliklarning erta oldini olish tadbirlari olib borilgan. Bu kabi ishlar salmoqli darajada ayollar salomatligini tiklash hamda ularning hayotini saqlab qolishga qaratilgan. Ayni paytda respublikamizda 100 mingga yaqin saraton kasalligi bilan davolanayotgan bemorlarimiz bor. GLOBOCAN tahlillariga ko‘ra, 2022- yilda yurtimiz aholisi o‘rtasida 35900 ta yangi saratonga chalinganlar aniqlandi hamda shulardan yarmidan ko‘pi ayollar ekanligi keltiriladi. Statistik ma‘lumotlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1-o‘rinda ko‘krak saratoni, 2-o‘rinda bachadon bo‘yni saratoni qayd etiladi. Achinarlisi shuki, bu kasalliklar, hattoki, yoshlar orasida ham kuzatilmoqda.

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining keltirishicha, 90% kasalliklar inson papillomavirusining (IPV)turlari keltirib chiqaradigan infeksiyalarda boshlanishi aniqlandi. IPV sabab bo‘lgan saratondan dastlabki holatlar va onkologik kasalliklarning boshlang‘ich davrlarini erta aniqlash va to‘g‘ri tashxis ,qolaversa davo choralarini olib borish natijasida muvaffaqiyatga erishish mumkin bo‘ladi.

Shuni keltirib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasining 2030- yilga qadar Davlat dasturlarida saraton oldi kasalliklarini aniqlash va unga davo choralarini qo'llash orqali reproduktiv yoshdagi ayollar orasida tibbiy yordam salohiyatini yaxshilash loyihalari o'rin egalladi.

Hozirgi kunda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan „Aholi salomatligi- 2030“ dasturi ustida ishlanmoqda. „Aholi- salomatligi- 2030“ xalqona dasturining asosiy tamoyillaridan biri bu- onalik va bolalikni muhofaza qilishdir.

Ayollar va bolalar salomatligini va ularning huquqlarini himoya qilinishi ta'minlash bo'yicha chora-tadbir ishlari, hattoki, ayni vaqtda Prezident Administratsiyasining ham e'tiborini o'ziga tortmoqda. Prezident Administratsiyasining rahbari Saida Mirziyoyeva Biz Markaziy Osiyodagi zo'ravonlikka qarshi chiqayotganlardan birinchisimiz. Ayollar va bolalarga nisbatan sodir etilayotgan nohaqliklar, erta homiladorlikning sabablari va bu holatlarning yuzaga kelmaslik chora tadbirlari kabi dolzarb masalalar yuzasidan muhokama jarayonlari olib borildi.

Prezident Administratsiyasi rahbarining Nukusga tashrifi eng muhim yo'nalishlar - ta'lim, sog'liqni saqlash, suv kabi sohalarni qamrab oldi.

Saida Shavkatovna Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti bolalar jarrohligi bo'limida murakkab operatsiyalarni boshdan kechirgan kichik bemorlar bilan uchrashib, suhbatlashdi. Ikkita yangi loyiha ishga tushirildi — raqamli oilaviy pasportni joriy etishga asoslangan „Oilaviy salomatlik maktabi“ hamda yoshlar ko'magida aholi tibbiy savodxonligini oshirishni ko'zda tutuvchi “Salomatlik volontyorlari” shular jumlasidan. Sog'liqni saqlashni zamon talablariga mos hamda har bir inson uchun qulay va foydali tizimga aylantirishni maqsad qilgan “Tibbiyot novatorlari” jamoasidagi yosh mutaxassislariga Administratsiya rahbari o'z minnatdorchiligini bildirdi. Atigi to'rt kun ichida Nukusda qariyb 12 ming nafar fuqaro ko'rikdan o'tdi, shulardan 1 700 dan ortig'i chuqur tekshiruvlardan o'tkazildi, 116 nafari esa davolanishga yo'naltirildi.

Shuningdek, Saida Mirziyoyeva 870 nafar o'quvchiga mo'ljallangan Nukusda qad rostlagan yangi, zamonaviy 55-maktabning ochilish marosimida ishtirok etdi. To'rtko'l tumanida ham yana bir yangi, 77-maktab ochildi — Qoraqalpog'iston asosiy e'tiborni sifatli ta'limga qaratmoqda va bu tahsinga loyiq. Nukuslik bolalar va ularning yuzidagi tabassumdan atrofqa ilqlik, yangi nafas va shodlik taralib turgandek bo'ldi. Bu dargohdan ko'plab bilimdon va muvaffaqiyatli, barchamiz faxrlanadigan bitiruvchilar yetishib chiqishini tilayman, dedi Administratsiya rahbari.

Bundan tashqari, Saida Shavkatovna Nukus shahridagi “Jeketerek” mahallasida to'liq modernizatsiya qilingan va kengaytirilgan suv tozalash inshootini borib ko'rdi. Ushbu inshoot ichimlik suvining sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Yangi suv tozalash inshooti 71 ta mahallaga, ya'ni qariyb 350 ming nafar aholiga hamda maktab va shifoxona kabi ijtimoiy soha obyektlariga toza suv yetkazib berish

imkonini yaratadi. Loyiha Respublika byudjeti mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilib, oʻzbekistonlik muhandislar tomonidan amalga oshirildi.

Shu oʻrinda aytib ketish joizki, 2025- yilning 10 oyida oʻzbekistonliklar sogʻlikni saqlash xizmatlariga 16,5 trln soʻm sarfladi- bu koʻrsatgich 2024- yilga nisbatan 15.4 % yuqoridir.

Ona va bola salomatligi masalalarining xalqaro hujjatlardan joy egallashi mamlakatimiz tomonidan aholining reproduktiv salomatligini yaxshilash va onalik va bolalikni muhofaza qilish tahsinga savozor ishlardan biridir.

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari ona va bola salomatligini mustahkamlash masalalari Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, xususan UNICEF, Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti va UNFPA tomonidan qoʻllab-quvvatlanayotgan dasturlar sogʻliqni saqlash tizimida profilaktika, erta aniqlash va sifatli tibbiy xizmatlarni kengaytirishda muhim rol oʻynamoqda. Zamonaviy skrining anjomlarining joriy etilishi ayollar va Prezident Administratsiyasi tashabbusi bilan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish natijasida ona va bola salomatligini yaxshilashga qaratilgan ilgʻor tajribalar milliy amaliyotga joriy etilmoqda. Bu jarayonda ayollarning xavfsiz onalik huquqini taʼminlash, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash hamda bolalarning sogʻlom rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy muhit yaratish asosiy ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shuningdek, Prezident Administratsiyasi faoliyatida hududiy darajada ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni manzilli hal etish muhim oʻrin tutadi. Mahalla darajasida amalga oshirilayotgan sogʻliqni saqlash va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash dasturlari ona va bola huquqlarining real hayotda taʼminlanishiga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, Prezident Administratsiyasining muvofiqlashtiruvchi va strategik roli ona va bola huquqlarini himoya qilish, ularning salomatligi va farovonligini taʼminlashda barqaror va uzoq muddatli natijalarga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Jahon Sogʻliqni Saqlash Tashkiloti (WHO). Maternal Mortality: Key Facts. Geneva, 2023.
2. World Health Organization. Newborns: Improving Survival and Wellbeing. Geneva, 2022.
3. UNICEF. Child Mortality Report: Global and Regional Trends. New York, 2023.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti yangilangan umumiy mamlakat tahlili: Oʻzbekiston United Nations Uzbekistan. Mart 2021-yil
5. OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil